

Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi

“Pedagogika va psixologiya fanlari” yo‘nalishi

Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
Sog‘lom turmush tarzini rivojlantirishga yo‘naltirilgan sog‘lomlashtirish, fitnes texnikalarini ishlab chiqish 	Tadqiqot shakli: Amaliy. Ilmiy tadqiqot natijalari: - respublikaning barcha viloyatlarida professional sportda va havaskor shug‘ullanuvchilarning sport darajalaridan kelib chiqib, sport turlariga tanlash va yo‘naltirish bo‘yicha kompleks ilmiy tadqiqotlar o‘tkaziladi; - antropometrik, kompyuter diagnostikasi, pedagogik, psixologik va psixofiziologik tayyorgarligini oshirish uchun maxsus somatik va psixofiziologik rivojlanishi haqida ma‘lumot olish tizimi ishlab chiqiladi; - sport-sog‘lomlashtirish faoliyatini rivojlantirish, shu jumladan, jismoniy sport bilan shug‘ullanuvchilar va havaskor shug‘ullanuvchi shaxslarga sport bilan shug‘ullanish uchun shart-sharoitlarni kengaytirish, infratuzilma yaratish, iqtidorli yoshlarni saralab olish (seleksiya ishlarini amalga oshirish) va professional sportga yo‘naltirish uchun kompyuter dasturi ishlab chiqiladi; - ilmiy tadqiqotlar natijalariga fitnes mashg‘ulotlari qaysi sport turlariga qaysi fitness vositalari to‘g‘ri kelishi va qaysi tasnif bo‘yicha musobaqalarda qatnashishi mumkinligi aniqlanib, har bir mashqlar xususiyatiga qarab yo‘riqnomalar ishlab chiqiladi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish. Tadqiqot natijalari Sport vazirligining tizim tashkilotlarida sinovlardan o‘tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida Sport vazirligi xulosasi olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish. Tadqiqot natijalariga intellektual mulk obyektlari uchun tegishli hujjatlar olinadi. Nufuzli ilmiy jurnallarda, jumladan <i>Scopus / Web of Science</i> ma‘lumotlar bazasida indekslanadigan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi. Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Sport vazirligining qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.